

**Shavkatova Kumushoy Hamdam qizi
Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi**

Sokin qalblar

**Россия
Москва - 2024**



Shavkatova Kumushoy Hamdam qizi
Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi
Sokin qalblar. Сборник стихов [текст. - Москва:
Издательство «Магистр» , 2024. - 34 стр.

Уважаемые читатели!

В этом сборнике мы искренне надеемся, что вы с интересом прочитаете первую книгу Кумшою и Дилнуры, стоящих на пороге новых мечтаний!

Желаем успехов и успехов творчеству двух молодых художников!

ISBN: 978-1-4461-6407-5

Shavkatova Kumushoy Hamdam qizi, 2024.
Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi, 2024.
Издательство «Магистр»., 2024.



«WORLDLY KNOWLEDGE» NASHRIYOTI, 2024.

Shavkatova Kumushoy Hamdam qizi

“AGAR AYRO TUSHSA YO‘LIMIZ”

Agar ayro tushsa yo‘limiz
Jonim bizlar nima qilamiz?
Mensiz yashay olasizmi siz
Men so‘laman shunday bo‘lsa gar.

Har kun oqar ko‘zimdan yoshim
Sizga buni ayta olmayman.
Sizni qiynash men uchun og‘ir
Sizga azob bera olmayman.

Agar ayro tushsa yo‘limiz
Siz doimo qalbda qolasiz.
Sizni doim eslab yuraman
Yodingizni qumsab turaman.

Azobdasiz buni bilaman
Sizga og‘ir buni bilaman.
Ko‘z yoshimga chiday olmassiz
Buni doim sezib turaman.



Kurashaman siz xafa bo‘lmang
Bu uchun men jonim beraman.
Agar sizga yeta olmasam,
O‘lishimni aniq bilaman.

Hasta og‘rir sho‘rlik yuragim
Asta o‘lib so‘lib bormoqda.
Bu qiynoqlar azobin berib
Qalbim o‘rtab, og‘ritmoqda.



“MEN SOG‘INDIM”

Men sog‘indim hech kim bilmagan

Bolalikning xayollarini.

Men sog‘indim aziz beg‘ubor

Mahallamning odamlarini.

Tandirdagi shirmoy nonlarni

Ilk bor ekan nihollarimni.

Men sog‘indim, aziz uyimni

Bobom, uyim, ukalarimni.

Men sog‘indim, aziz yoshligim

O‘ynab –kulgan ko‘chalarimni.

Dardim to‘lib, kuyib ketganda

Quchishingiz sog‘indim ona.

Ketar edim soyning bo‘yiga

Xafa bo‘lsam kimdandir agar.

O‘tirardim bobom kelguncha,

Yupitishin sog‘indim ona.



Men sogʻindim tor koʻchalarni
Har kun oʻtgan oʻsha kunlarni.
Aziz shaxrim tabiatini
Kumushingiz sogʻindi ona.



“KETAMAN”

Bir kun men ham ketaman
Izlaysiz topolmaysiz.
Juda uzoq olisga
O‘zim bilmas makonga.

Bir kun men ham ketaman
Izim qolmas jahonda.
Balki eslashar ba‘zan
Lekin buni bilmayman.

Bir kun men ham ketaman
Bu dunyodan, hayotdan.
Yaqinlarim sog‘insa,
Men ham sassiz turaman.

Bir kun men ham ketaman
Qo‘msarsiz ovozimni.
Kulishlarim, ko‘zlarim
Eslab g‘amga botarsiz.



Bir kun men ham ketaman
Men kabi qiynalarsiz.
Yurak bag‘ringiz dog‘lab,
Shu kunlarni qumsarsiz.



“BITTA YOSH TALABAMAN”

Uyimdan uzoqdaman
Musofir begonaman.
O‘zga joylarga kelgan,
Bitta yosh talabaman.

Aziz uyim uzoqda,
Ota –onam yiroqda.
Oilasin sog‘ingan,
Bitta yosh talabaman.

Qalbidam orzu –umid
Yuragimda hayajon.
Maqsadin oldga qo‘ygan
Bitta yosh talabaman.

Maqsadim juda ulkan
Bir inson bo‘lay deyman.
O‘z yurtini sevuvchi
Bitta yosh talabaman.



Hali kunlar keladi
Meni dunyo biladi.
Ulkan orzular qilgan
Bitta yosh talabaman.



“VODIYLAR”

Olisdan tog‘larni ko‘rdim
Tog‘lar bilan bog‘larni ko‘rdim.
Mayin esgan shabboda bilan
Xayollarga men rosa cho‘mdim.

Ajib go‘zal o‘sha vodiylar
Qushlar uchar, sayrab nolalar.
Berildim men shamol kuyiga
Allalangan daraxtlarga.

Ayol go‘dak tebratgan misol
Novdalarin tebratgan daraxt.
Qushlar qo‘nib uning shoxiga
Erkalanar go‘daklar misol.

Gullar hidin to‘yib tuyarman
Ular bilan yashnab turarman.
Agar o‘sha vodiya kelsang,
Men bilan shu vodiya qolsang.



Birga bizlar baxtli bo‘larmiz
G‘am –anduxdan birga kecharmiz.
Ezgu hislarga biz to‘yarmiz
Sen kel do‘stim, bunda yasharmiz.

Kulib turar yuzlarim
Men hayotdan xursandman.
Ba‘zan achchiq so‘zlarim
Ichimga ham yutganman.

O‘ylamang sizlar meni
“Hech nimani bilmaydi”,
Sizning gap –so‘zlaringiz
Menga hech ham yoqmaydi.

Hech kim uchun o‘zimni
Soxtalikka solmayman.
Gap –so‘zlarim yoqmasa
Bunga parvo qilmayman.

Yaqin bo‘lmasangiz ham



Ortimdan gapirmangiz.
Mening gunohim olib,
Gunohga siz botmangiz.

Mahzun bo‘lib qolishim
O‘zimga ham yoqmaydi.
Yuragimni dardini
Ular hech ham bilmaydi.

Ko‘ksimga og‘riq turib
Ba‘zan meni qiynaydi.
Ota –onamga aytib
Qiynagim ham kelmaydi.

O‘z dardimni aytmayman
O‘zga uchun kuyaman.
Mehr kutib o‘zgadan
Mehr berib yuraman.



“ENDI HECH HAM SEVMAYMAN”

Hech kimga ishonmayman
Dilimdagin aytmayman.
Sohta insonlar sabab
Endi hech ham sevmayman.

Ortiq gunoh qilmayman
Soddagina bo‘lmayman.
Dilim dog‘lab men boshqa
Endi hech ham sevmayman.

Ko‘z yoshlarga to‘ymayman
Mahzunligim qo‘ymayman.
Vafosizlar dastidan
Endi hech ham sevmayman.

Orzulardan kechmayman
Umidimni uzmayman.
Ertaga yashash uchun
Endi hech ham sevmayman.



“QARANG BEGIM...”

Qarang begim....

Armon bo‘lgan orzularimiz
Tog‘lardan ham oshib ketibdi.
Menga bergan va‘dalarangiz
Yer qariga kirib ketibdi.

Qarang begim...

Menga boqqan bu ko‘zlar hozir
Nigohimdan qocha boshlabdi.
Bir bo‘lmasdan ortiq yo‘limiz
Qarang har yon keta boshlabdi.

Qarang begim....

Sho‘ng‘imangiz bu daryolarga
Ular yoshim bilan to‘libdi.
Bugun yolg‘iz o‘zim qolibman
Qasamingiz buzib qo‘yibman.



“BIROZ YIG‘LADIM”

Bilasizmi ona, biroz yig‘ladim,
Qalbimni ming bitta tig‘ga joyladim.
Paymol bo‘lgan so‘ngsiz orzularimdan
Xayolimla qayta gular yasadim.

Bilasizmi ona, biroz yig‘ladim
Meni anglamagan dunyodan to‘ydim.
Robbinga armonsiz duolar qildim
Gunohkor qo‘limla yoshimni artdim.

Bilasizmi ona, biroz yig‘ladim
G‘arazli ko‘zlardan har yonga qochdim.
Bilmam buncha nolib, she’rlarni yozdim
Qancha tosh yurakka gullarni otdim.

Bilasizmi ona, biroz yig‘ladim
Tuxmatchilarni men xudoga soldim.
Barin qayta boshlab, kuldim, yashadim
Kulgularimdan men bir tog‘ yasadim.



Bilasizmi ona, biroz yig‘ladim
Ko‘z yoshlarimni men bir xumga soldim.
Robbimdan o‘tinib bir yo‘l so‘radim
Ortiq ozor bermang, juda charchadim.

Bilasizmi ona, biroz yig‘ladim.....

Ko‘za sindi bir marta
Yig‘sam sinig‘i qoldi.
Qalbm kuydi otashda
Dilim hasratda qoldi.

Gap –so‘zlardan charchadim
Lek hech parvo qilmadim.
Darz ketgan bu ko‘nglimga
Bir, o‘zim malham bo‘ldim.



“QACHON QAYTIB KELADI?”

Jazirama yoz kuni
Havo judayam issiq.
Mayin bahor havosi
Qachon qaytib keladi?

Barcha yerda yashillik
Shirin mevalar pishgan.
Gullab turgan daraxtlar
Qachon qaytib keladi?

Barcha yerda yashillik
Shirin mevalar pishgan.
Gullab turgan daraxtlar
Qachon qaytib keladi?

Kuzning tinmas yomg‘iri
Barglar sariq tus olgan.
Shirin bahor yomg‘iri
Qachon qaytib keladi?



Kuzning xomush kunlari
Qachon tugab bitadi?
Quvnoq navro‘z bayrami
Qachon qaytib keladi?

Kumush qish fasli keldi
Ayoz g‘uv –g‘uv qiladi.
Bahordagi shabada
Qachon qaytib keladi?

Kunlar isiy boshladi
Qutyosh nurlar sochyapti.
Bahorgi o‘sha kunlar
Yana qaytib kelyapti.



“ILK MUHABBAT”

O‘tmishni esga olsam
Nagox kelar tabassum.
Ko‘zlarimdan negadir
Tomchilaydi ko‘z yoshlar.

Ul insonni eslasam
Xayollar olib ketar.
Baxtning o‘sha ifori
Dimog‘imga urilar.

Ilk muhabbat qandaydir
Unutilmas bo‘larkan.
Javobsiz bo‘lsa agar
Qalbingda dard bo‘larkan.

Ilk muhabbat baribir
Ilk alanga bo‘larkan.
Kimdir o‘rnini bossa
Uningdek bo‘lolmaskan.



“MEN UCHUN YASHA”

Mayli dunyo senga tor bo‘lsin
Mayli umring o‘tsin behuda
Ammo jonim shuni unutm
Hech bo‘lmasa, men uchun yasha.

Aslo kelma mening oldinga
Men kutaman abadul –abad.
Shu kungacha asrab o‘zingni
Hech bo‘lmasa, men uchun yasha.

Ovqat yemay, suv ham ichmagin
Umidingni hech yo‘qotmagin.
Ko‘nggil berib o‘zga ayolga
Hech bo‘lmasa, men uchun yasha.

Mana mensiz o‘tdi uch yil ham
Mensiz yashash oson ekanku.
Sen o‘zingni ayblama hech ham
O‘zing uchun, men uchun yasha.



Ko'ngil qo'yding o'zga ayolga
Ko'rib baxtli bo'lyapman sizni.
Hech o'ylama xafa bo'lmayman
O'zing uchun, men uchun yasha.

Sochlarimni yulib dod solsam
Qarg'asam men sizlarni ko'rib.
Ruxim orom topmasin meni
O'zing uchun, men uchun yasha.

Bu dunyoda bo'lgin u bilan
Unutmagin hech kimga seni
Bermagayman o'zga hayotda
O'zing uchun men uchun yasha.



“ISHONTIRING”

Menga aytmang yolgʻon ertak
Koʻzlarimga parda tortmang.
Koʻryapmanku shu yoshimda
Dunyoni zolimlar oʻynar.

Koʻzlarini koʻr qilgan nafs
Hiyla –nayrang, fisq –u fasod
Yana sizga nelar kerak
Qudrat kerak, dunyo kerak.

Mayli oling siz barini
Dunyolarni, davlatlarni.
Faqat bitta oʻtinchim bor
Tinch qoʻyinglar farzandlarni.

Mayli bizlar indamaymiz
Sizlarning bu zulmingizga.
Lekin yoshlar turmaydi tinch
Jar solarlar dunyolarga.



“ONAMNI QIYNAMAGIN”

Bilaman qiynalarlar
Lek bizga sezdirmaslar.
Ey Allohim iltimos
Onamni qiynamagin.

Erta oqargan sochlar
Yuzga ajinlar tushgan.
Ey Allohim iltimos
Onamni qiynamagin.

Doim bizni deb ishlar
Qo‘llar mehnatda singan.
Ey Allohim iltimos
Onamni qiynamagin.

O‘zi yemay yedirar
O‘zi kiymay kiydirar.
Ey Allohim iltimos
Onamni qiynamagin.



Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi

MO'JIZA

Bolaligimni eslasam maktab davrlarim yodimga tushadi. Ancha sho'x, o'yingaroq ammo maktabning oldi o'quvchilari edik. Deyarli har kuni sinfdoshlarim bir nimalarni o'ylab topishmasa partasida beholovat o'tirolmas edi. Hatto fizika o'qituvchimizga Nyutonning qonuniyatlari xato ekanligini tushuntirib berganmiz. Qizig'a hali necha yillar o'tib buni hech kim amalga oshirmagan. 9-sinfda o'qir edik. Dars jadvalida ikkinchi darsimiz- fizika. Nima uchundir bilmadim fizika darsi biz uchun boshqacha tuyulardi, yoki o'qituvchimizni hurmat qilganimiz uchunmi darsda pashshani uchganiniyam bildirmasdik. O'qituvchimiz har doimgidek ish rejasiga qarab mavzuni o'tib berdilar. Kitobimiz oxiridagi masalalarni doskada muhokamalar bilan yechdik. O'qituvchimiz Sayyora opa yana har kimni o'zi yechadigan qilib mustaqil ish berdi. O'qituvchimizni yana bir ajoyib odatlari bor edi. Kim vazifani birinchi uchlikda yechib olib borsa a'lo baho qo'yib beraman deb qiziqtirardilar. Har doimgidek men vazifani ishlashga kirishib ketdim. Bizning sinfda Sarvar ismli sho'x bola bor edi. Borgan yerida bir nimalarni ag'dar to'ntar qilib yurardi. Ustiga ustak u mendan orqa partada o'tirardi. O'sha kuni qayerdandir qo'lga bo'yi qalam tangi keladigan ingichka temir tushub qolgan. U darsda shu temirni yuqoriga otib keyin ushlab olib o'tirardi edi. Bir payt u temirni qattiqroq zarb bilan yuqoriga otgan bo'lsa kerak borib sinfxonamizning qandiliga tekkan. Qandil shishadan yasalgan emasmi chil-parchin bo'lib sinib ketishi tayin bo'lgan. Hamma meni ismimni aytib "Qoooch"deb baqirishardi. O'qituvchimiz ham ko'zini yumib olgan ahvolda turardi. Qizig'i u qandil shiftda mening tepamda osilg'iq turardida. Sinib mening boshimga tushishi tayin ahvolda. Birdan uzilib ketdi lekin buni qarangi mening to'g'rimda turgan qandil yonboshimga tushib chil-parchin bo'ldi. Hammaga bir-bir tikilib qarayman hamma hayron meni boshimga tushdi deb o'ylashganda lekin menga hatto bitta shisha sinig'iyam tegmagandi. To'satdan ko'zim temirni otib qandilni sindirgan Sarvarga tushdi. U boshini quyi solgancha qo'li bilan peshonasini ushlab olgan. Men uni qilgan ishidan



pushaymon holatda o'tirganini hech ko'rmagan edim. Joyimdan jilmay hayron bo'lib turubman. O'qituvchimiz asta-sekin shisha siniqlari orasidan oyoqlarini avaylab o'tib mening yonimga keldi, peshonamdan o'pib quchib qo'ydilar. Sarvar ham dik etib o'rnidan turdi. Qarasa hamma joyim bus-butun. Birdan gapga chechanligi tutib qolib:

-Ustoz qarang Nyuton ham adasharkan!

-Nega

-Qarang bir jism yuqoridan pastga qarab harakatlansa to'ppa-to'g'ri shu treaktoriya bilan yuradi degan.

-To'g'ri

-Lekin qandil yarim metr chamasi boshqa joyga tushdiku. Demak, Nyuton adashgan.

-"Bo'lishi mumkin",- deb ustoz ham indamay qo'ydi. Qanday qilib indasin o'zi zo'rg'a o'ziga keldi-ku.

Bu voqea hech qachon esimizdan chiqmasa kerak. Biz tez-tez sinfdoshlarimiz bilan yig'ilishib tursak bu voqeani o'sha adashgan Nyutonni esga olib kulishib qo'yamiz.

Aslini olganda Nyuton adashmagan. Buni endi tushunib boryapmiz. Bu ham bir mo'jiza ekan. ALLOH Taolo qilgan bir mo'jizalardan!

LAQAB

„Shoirilar laqablarini nimaga ishora qilganidan tanlaydi” mavzusida adabiyotdan maqola yozish uchun har xil ma’lumotlar izlab o’qiyotgan edim. Ancha o’yga berilib ketibman. Bir paytlar sinfdoshlarim orasida bir-birlarini laqab bilan chaqirish urf bo’lib ketgandi. Hattoki, shu laqab yuzasidan yemagan somsamga pul to’laganim ham esimga tushib ketib, miyig’ida kulib qo’ydim. Sinfdoshlar o’rtasida ayniqsa, boshlang’ich sinflarda bir-birlarini ustozga chaqib berish juda sharafli ish edi go’yo. Sinfdoshlarim antiqa nomlarni laqab qilib qo’yib olgan. Bitta qiz Lobar bo’lsa, „Lupa” deb, Gulsevar-Gulchapchap, Farruh-Purruh, Zafar-Zaparosh, Iroda-Irinka, Sevarani esa hammani suhbatini eshtib quloq osib turaverganidan „sakkizlik fleshka” deyishardi. Xullas, hammani ismini to’liq aytishmas edi. Bir kuni sinfimizning sakkizlik fleshkasi ustozimiz, ya’ni sinf rahbarimiz Adolat opaga hammani yomonlab beribdi. Ustoz har juma birinchi soatda bo’ladigan tarbiyaviy soatda hamma o’quvchilarga tanbeh berdilar. Ismlarimizni to’liq aytishni ta’yinladilar. Shu paytlarda har jumadan jumagacha kim eng ko’p kundaligiga besh baho olishga bellashar edik. Bu bilan har hafta reytingimiz aniqlanib sinfxonamiz devoriga ilib qo’yilar edi. Ustoz agarda kimdir laqab bilan chaqirsa uni olgan beshlaridan o’nta ayirib tashlayman deya shart qo’yidilar va buni kuzatib yurishni bitta qizga yukladilar. Shundan keyin sinfimiz ancha tinchidi, hamma beshlaridan ayrilib ketmasligi uchun laqab aytmaydigan bo’lishdi. Bir kuni nima bo’ldiki, men ham laqab aytganlar ro’yxatiga tushib qolibman. Bunga o’zim ham sinfdoshlarim ham hayron. Chunki, men birovni ismini aytmasdan unga hech qachon laqab to’qiydigan odatim bo’lmagan. Ustoz: „voy qizim sendan kutmagandim”,- deya meni urushyaptilar. Men ham tushunolmay ustozga termulib turibman. Ho’p aytdi kimga laqab to’qibman ekan deya sinfdoshim Sevaraga yuzlansam, sen Asalni kasal deb aytgansan deydi. Keyin esimga tushib ketgan. Hamma Asalni kasal deb chaqirishar edi. Sinfdan ona tilidan dars qilib boradigan yagona o’quvchi men bo’lganman. Asal yozgan uyga vazifamni so’ragan paytida, Asal sen uyga vazifangni o’zing tayyorlasang nima kasal bo’lib qolasanmi degan edim. Shuni Sevara



ya'ni „sakkizlik fleshka” laqab bilan chaqirdi deya daftariga meni ham yozib qo'ygan. Uning gapimning ma'nosiga tushunmaganligining oqibatidan shu hafta men reytingdan ikkinchi o'ringa tushib qolganman. „Sakkizlik fleshka”ning mahoratiga qarang hatto meni aytgan bir jumla gapimni ham eshtib qolgan. Bunaqa razvedka bo'lish ham hammaning qo'lidan kelmaydi. Ammo men Asalni hamma chaqirganidek, kasal demoqchi bo'lmaganimni agar sinfdoshlarim ona tili fanini yaxshi o'qishganida bilib olgan bo'lar edilar, balkim.



BUVIJONIM XOTIRLAB

Ko'pgina bolalarning maktabga ilk qo'ygan qadamlari olti-yetti goho ota-onalar farzandimni bo'yi partada o'tirishga yetmaydi deyishsa sakkiz yoshida bo'lardi. Mening maktab deya atalmish muqaddas go'shaga uch yoshimda qadam tashlashimga, maktabni masjid kabi e'zozlash kerakligini anglashimga sababchi bo'lgan inson jannati muhtaramimiz buvijonimdir. Buvijonim o'z kasbiga butun muhabbatini bergan o'qituvchi edilar. Yosh, izlanuvchan, ko'zi yangiliklarni izlovchi uch yoshli Dilnura har kuni ertalabdan uyg'onib olib, buvisini ortidan maktabga borish uchun imkon izlardi. Hattoki buvim bitta yod olgan she'rim Rayhona ustoz uchun atalmasdan, balkim Zulxumor ustoz uchun bo'lganligini bilib qolib, mening sinf rahbarim Zulxumor opa bo'lishiga ruxsat olganlar. Maktabda ustozlar bilan muloqot qilishda oddiy o'quvchi emas, balki bitta kasbdoshining nabirasi sifatida qarashlari menda faxr tuyg'usini uyg'otgan bo'lsa ajab emas. Doskada umri o'tadigan aktyordek, sochining tolasi qo'lidagi bo'rdek oppoq bo'ladigan bu sharaflı kasbni egallashimda ham ustozlarim va buvijonimning tarbiyasi, shu kasbga mehr-muhabbat uyg'otganligi natijasidir. Bir maskanda o'ttiz ikki yil dars berib, minglagan shogirdlarni chiqarish chinakam kasb fidoyisining qo'lidan kela oladigan ish. Mahallada, ko'chako'yda Chingiz Aytmatov aytganlaridek „Kimning nabirasisan?“ deb so'raydigan odat biz tomonlarda ham bor. Xuddi shunga o'xshash mendan ham so'rab qolishsa ota-onamning yoki bobomning ismlarini aytsam tanimasliklari mumkin, ammo Zuhra ustozning nabirasiman desam yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan insonlar tanir edi. Buvim vafotlaridan keyin aytmadim, aniqrog'i aytishga jur'atim yetmadi. U insonni eslab meni yurak-bag'rim ezilishini oldindan his qilib turardim. Kimdir rahmatli deya tilga olsa nafas yetishmaganden bo'lardi. Buvim yor-u-do'stlar, ko'chako'ydagilar uchun rahmatli bo'lib ketgan insondirlar ammo oilamiz qalbida hamisha tirik, barhayot. Eslasam, eslog'liq narsalar talaygina. Hikoyamni boshida uch yoshda maktabga qadam tashlaganman deganman. Yosh, o'yinqaroq qizcha bilan ajoyib voqealar bo'lib o'tgan. Bir kuni ayni yoz pallasi o'quvchilarga yozgi ta'til berilgan. Buvijonim boshlang'ich sinflarga



rahbari bo‘lganligi sababli bitta sinfxonani yangi o‘quv yiliga ta‘mirlashi kerak bo‘lgan. Usta chaqirganlar, sinfxona devorlari oqlangan, deraza romlari va pol ham bo‘yalgan. Men chanqab qolganim uchun buvijonim suv olib kelguncha bo‘yalgan pol ustidan kichkina oyoqlarim bilan besh daqiqa ichida yugurib chiqqanman. Hali qotishga ulgirmagan bo‘yoq oyoq kiyimimga surkalib qolgani turaversin, butun bir xonani rasvosini chiqarganman. Buvim o‘quvchilariga og‘irlik qilmasin deb bo‘yoqni o‘zi sotib olgan, ustiga ustak u paytlarda o‘qituvchilarning oylik maoshi ham bir axvolda. Xullas, bu voqea sinfni boshidan ta‘mirlashga olib kelgan. Buvimning sabr-matonatiga ming tasannolar bo‘lsin! „Uyda ikki nabiramni qaraganimdan maktabga borib o‘ttiz nafar o‘quvchiga dars o‘tganim yaxshi”,- deydigan gaplarining endi-endi anglab yetyapman. Uxlasam tushimda, uyg‘onsam hayolimda gavidalanadigan inson- hamisha qalbimizda barhayotsiz.



O'zimdanda o'tganin o'zim bilaman

Dardimni bildirmay sizga kulaman,
Ammo ich-ichimdan ko'ksim tilaman.
Sizni harchand avrab dalda bersam-da,
O'zimdanda o'tganin o'zim bilaman.

(Muslim Ali she'ri)

Ne qilay armonsiz o'tmasa dunyo,
Dunyolar dardini sig'dirar qalbim.
Yurakim yangratar bir aks-sado,
O'zimdanda o'tganin o'zim bilaman.

Eshitaman nogoh inson g'iybatin,
Ularga jo'shadi zug'm-qudratim.
Goh kelib qoladir rahm shavqatim,
O'zimdanda o'tganin o'zim bilaman.

Yolg'onlar so'zlarlar ko'zimga qarab,
Gar hazm qilaman bu so'zlarni ham.
Aytgim kelar har gal insonmisiz deb,
O'zimdanda o'tganin o'zim bilaman.



Yonginangga qaytgim keladi

Yuray desam masofa yiroq,
O'ylarimning oxiri firoq.
Sog'inganda azizim biroq,
Yonginangga qaytgim keladi
Dardlarimni aytgim keladi.

Sokin qalbim hayqirar tinmay,
Ko'z yoshlarim uvolin bilmay,
Dod solaman ichimga sig'may.
Yongingga qaytgim keladi,
Dardlarimni aytgim keladi.



Meni yo'qlab kelasanmi baxt

Sabr qilsam bilasanmi baxt
Hayotimga qo'nasanmi baxt
Sokin qadam tashlab bir kuni
Meni yo'qlab kelasanmi baxt.

Noming yozsam qalbimga o'yib,
Ich-etimdan jimgina kuyib
Yolvorganda Ollohga, kuyib
Meni yo'qlab kelasanmi baxt



Всероссийский информационно-образовательный
портал «**Магистр**»

16+
сборник стихов

Shavkatova Kumushoy Hamdam qizi
Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi

Sokin qalblar

Председатель оргкомитета: Ирина Фёдоровна К.

Email: metodmagistr@mail.ru

Тел. редакции: +7 923 606 2950

Главный редактор: Вознов Александр Сергеевич

Email редакции: magistr-centr@magistr-r.ru

Информационно – образовательный ресурс

"Магистр": Елена Владимировна В.

Email: magistr-centr@mail.ru

Сетевое издание «Магистр»

СМИ Серия ЭЛ No ФС 77 – 75609

от 19.04.2019 г.

(РОСКОНАДЗОР, г. Москва)

ИНН 4205277233

ОГРН 1134205025349